

2019 yilning yanvar – iyul oylarida QURILISH ISHLARI

**Qurilish ishlari
hajmi**
-2515.3 mlrd. so'm

yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
-1,3 %

Kichik korxonalar va
mikrofimlar ulushi
-62,3 %

Norasmiy sektor
ulushi
-36,4 %

2019 yilning yanvar – iyul oylarida Samarqand viloyatida 2515,3 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan 119,7 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 35,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,7 foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 1554,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,6 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi 924,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,4 foizni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **1865,2** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **74,2** % ni, o'sish sur'ati **136,6** % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **345,1** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **13,7** % ni, o'sish sur'ati **193,2** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **305,0** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **12,1** % ni, o'sish sur'ati **3,2** m. ni tashkil etdi.



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari






Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **2219,3** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **88,2** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **4,6** bandga ko'paydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **296,0** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **11,8** foizini tashkil qildi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	2285,1	119,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	805,0	96,0	32,0
Kattaqo'rg'on sh.	54,3	100,0	2,2
<i>tumanlar:</i>	0,0	0,0	0,0
Oqdaryo	207,6	100,0	8,3
Bulung'ur	68,3	100,0	2,7
Jomboy	125,9	100,0	5,0
Ishtixon	131,1	100,0	5,2
Kattaqo'rg'on	103,2	100,0	4,1
Qo'shrabot	86,6	100,0	3,4
Narpay	92,8	100,0	3,7
Nurobod	54,3	100,0	2,2
Payariq	151,4	100,0	6,0
Pastdarg'om	169,4	100,0	6,7
Paxtachi	84,6	100,0	3,4
Samarqand	120	96,9	4,8
Tayloq	115,3	100,0	4,6
Urgut	145,5	100,0	5,8



Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan: Samarqand shahrida – **805,0** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **207,6** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **169,4** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **151,4** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **145,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan: Paxtachi tumanida – **128,4** %, Samarqand shahrida – **126,3** %, Nurobod tumanida – **126,3** %, Pastdarg'om tumanida – **121,3** % va Payariq tumanida – **119,6** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

I.Raxmatov

Aloqa telefoni:

(66) 235-60-82